

**BOLANING JAMIYATGA ERTA MOSLASHUVINI TA'MINLASHDA  
RIVOJLANISH MARKAZLARINING O'RNI**

*Valijonova Bibirobiyaxon Numonjon qizi*

*Qo'qon Davlat Universiteti*

*E-mail: meliqoziyevaxon008@gmail.com*

**ANNOTATSIYA**

Mazkur maqolada bolaning jamiyatga erta moslashuvini ta'minlashda maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi rivojlanish markazlarining o'rni va ahamiyati yoritilgan. Rivojlanish markazlari orqali bolalarning ijtimoiy, kommunikativ, kognitiv hamda ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, tengdoshlari bilan muloqot qilish ko'nikmalarini shakllantirish masalalari tahlil qilingan. Shuningdek, markazlarda tashkil etilgan faoliyatlarning bolaning shaxs sifatida kamol topishi va jamiyatga muvaffaqiyatli moslashuviga ta'siri ko'rib chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** bola, jamiyat, moslashuv, rivojlanish markazlari, maktabgacha ta'lim, ijtimoiy rivojlanish, kommunikativ ko'nikmalar, ijodkorlik, ta'lim-tarbiya, shaxs rivoji.

**АННОТАЦИЯ**

В данной статье рассматривается роль центров развития в обеспечении ранней социальной адаптации ребенка. Проанализировано значение развивающей среды для формирования социальных, коммуникативных, познавательных и творческих способностей детей дошкольного возраста. Особое внимание уделено влиянию деятельности в центрах развития на успешную интеграцию ребенка в общество и его всестороннее личностное развитие.

**Ключевые слова:** ребенок, общество, адаптация, центры развития, дошкольное образование, социальное развитие, коммуникативные навыки, творчество, воспитание, развитие личности.

**ANNOTATION**

This article discusses the role of development centers in ensuring the early social adaptation of children. It analyzes the importance of developmental environments in fostering preschool children's social, communicative, cognitive, and creative abilities. The study also highlights how activities organized in development centers contribute to children's successful integration into society and their comprehensive personal development.

**Keywords:** child, society, adaptation, development centers, preschool education, social development, communication skills, creativity, education, personality development.

**KIRISH.**

Bugungi kunda mamlakatimizda maktabgacha ta'lim tizimini takomillashtirish, bolalarning har tomonlama barkamol rivojlanishini ta'minlash hamda ularni jamiyat hayotiga muvaffaqiyatli tayyorlash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasida yosh avlodning intellektual, ma'naviy va jismoniy rivojlanishini qo'llab-quvvatlash, ta'lim sifatini oshirish hamda zamonaviy ta'lim muhitini yaratishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Shu jihatdan maktabgacha ta'lim tashkilotlarida faoliyat yuritayotgan rivojlanish markazlari bolalarning ijtimoiylashuvi va jamiyatga erta moslashuvini ta'minlashda muhim pedagogik vosita sifatida namoyon bo'lmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Taraqqiyot strategiyasida maktabgacha ta'lim bilan qamrov darajasini oshirish, bolalarning sifatli ta'lim olishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish hamda ularning ijodiy va intellektual salohiyatini rivojlantirish vazifalari belgilab berilgan<sup>1</sup>. Mazkur vazifalarning samarali amalga oshirilishi maktabgacha ta'lim tashkilotlarida rivojlantiruvchi ta'lim muhitini yaratish, jumladan, rivojlanish markazlari faoliyatini takomillashtirish bilan bevosita bog'liqdir.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi PQ–4312-son qarori bilan tasdiqlangan “O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi”da bolalarni maktab ta'limiga sifatli tayyorlash, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish hamda rivojlantiruvchi muhitni tashkil etish asosiy vazifalar sifatida belgilangan<sup>2</sup>. Ushbu hujjatlarda rivojlanish markazlarining tashkil etilishi va ulardan samarali foydalanish bolalarning mustaqil fikrlashi, muloqot madaniyati, ijodiy qobiliyatlari hamda ijtimoiy faolligini shakllantirishga xizmat qilishi qayd etilgan.

Maktabgacha yosh davri bolaning shaxs sifatida shakllanishida eng muhim bosqich hisoblanadi. Aynan shu davrda bola atrof-muhitni anglaydi, tengdoshlari va kattalar bilan munosabat o'rnatishni o'rganadi, ijtimoiy me'yor va qadriyatlarni o'zlashtiradi. Rivojlanish markazlarida tashkil etiladigan o'yin, ijodiy, qurish-yasash, ilmiy-tadqiqot va kitobxonlik faoliyatlari bolalarda muloqot qilish, hamkorlikda ishlash, mustaqil qaror qabul qilish kabi hayotiy kompetensiyalarni shakllantiradi. Natijada bolaning jamiyatga moslashuvi samarali kechadi.

Mavzuning dolzarbligi shundaki, zamonaviy ta'lim tizimida bolalarning ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantirish, ularni jamiyat talablariga mos ravishda tarbiyalash

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF–60-son Farmoni “2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida”.

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi PQ–4312-son qarori “O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida”.

hamda rivojlanish markazlari imkoniyatlaridan samarali foydalanish masalalari alohida ahamiyat kasb etmoqda. Shu sababli bolaning jamiyatga erta moslashuvini ta'minlashda rivojlanish markazlarining pedagogik imkoniyatlarini ilmiy jihatdan o'rganish va tahlil qilish muhim vazifa hisoblanadi.

### ADABIYOTLAR TAHLILI.

Bolaning jamiyatga erta moslashuvi va rivojlanish markazlarining pedagogik imkoniyatlari masalasi pedagogika, psixologiya hamda maktabgacha ta'lim nazariyasida muhim ilmiy yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Mazkur muammoni o'rganishda xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar alohida ahamiyat kasb etadi. Maktabgacha ta'lim nazariyasining asoschilaridan biri bo'lgan L.S. Vigotskiy bolaning rivojlanishi ijtimoiy muhit bilan uzviy bog'liqligini ta'kidlab, ta'lim va tarbiya bolaning psixik rivojlanishida yetakchi omil ekanligini qayd etgan. Olimning "yaqin rivojlanish zonasi" nazariyasiga ko'ra, bolaning tengdoshlari va kattalar bilan hamkorlikdagi faoliyati uning ijtimoiy moslashuviga xizmat qiladi<sup>3</sup>. Rivojlanish markazlarida tashkil etiladigan guruhviy faoliyatlar aynan shu nazariyaga asoslanadi.

Shveysariyalik psixolog Jan Pijae bolalarning bilish faoliyati bosqichma-bosqich rivojlanishini ilmiy jihatdan asoslab bergan. Unga ko'ra, maktabgacha yoshdagi bolalar faol o'rganish jarayonida atrof-muhitni anglyadilar va ijtimoiy tajribalarni o'zlashtiradilar<sup>4</sup>. Rivojlanish markazlarida tashkil etilgan amaliy va o'yin faoliyatlari bolalarning bilish jarayonlarini rivojlantirish bilan bir qatorda, ularning jamiyatga moslashuvini ham ta'minlaydi.

Mariya Montessori esa bolaning mustaqil faoliyat yuritishi uchun yaratilgan rivojlantiruvchi muhitning ahamiyatiga alohida e'tibor qaratgan. Uning fikricha, ta'lim muhiti bolaning qiziqishlari va ehtiyojlariga mos ravishda tashkil etilgandagina samarali natija beradi<sup>5</sup>. Bugungi kunda maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi rivojlanish markazlari faoliyatida Montessori g'oyalarining ayrim jihatlari keng qo'llanilmoqda. Maktabgacha ta'lim sohasidagi zamonaviy tadqiqotlarda N.A. Menchinskaya, A.V. Zaporozets, D.B. Elkonin kabi olimlar o'yin faoliyatining bola shaxsini shakllantirishdagi rolini keng yoritganlar. Ularning fikricha, o'yin bolaning ijtimoiy tajribalarni egallashida, muloqot madaniyatini rivojlantirishda va jamiyat talablariga moslashuvida asosiy vosita hisoblanadi<sup>5</sup>. O'zbekistonlik olimlardan R.M. Qodirova maktabgacha ta'lim jarayonida rivojlantiruvchi muhit yaratish bolaning shaxsiy sifatlarini shakllantirishga xizmat qilishini ta'kidlaydi. Olimaning fikricha, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tashkil

<sup>3</sup> Выготский Л.С. Педагогическая психология. – Москва: Педагогика, 1991. – Б. 112

<sup>4</sup> Piaget J. The Psychology of the Child. – New York: Basic Books, 1969. – P. 27.

<sup>5</sup> Montessori M. The Absorbent Mind. – New York: Holt, Rinehart and Winston, 1967. – P. 45.

etilgan rivojlanish markazlari bolalarda mustaqillik, faollik va ijodkorlikni rivojlantirishga imkon beradi<sup>5</sup>.

Shuningdek, M. Inomova va Sh. Sodiqova tadqiqotlarida maktabgacha yoshdagi bolalarni ijtimoiy hayotga tayyorlashda tarbiyaviy muhitning ahamiyati yoritilgan. Ularning fikricha, bolalarning tengdoshlari bilan hamkorlikda faoliyat olib borishi, jamoada ishlash ko'nikmalarini egallashi hamda muloqot madaniyatini shakllantirishi keyingi ta'lim bosqichlarida muvaffaqiyatli moslashuvning muhim omili hisoblanadi<sup>6</sup>. So'nggi yillarda maktabgacha ta'lim tizimida olib borilayotgan islohotlar doirasida rivojlanish markazlari faoliyatiga oid ilmiy-metodik tadqiqotlar soni ortib bormoqda. Jumladan, maktabgacha ta'limning "Ilk qadam" davlat o'quv dasturida rivojlanish markazlari bolaning individual qobiliyatlarini rivojlantirish, mustaqil faoliyatini qo'llab-quvvatlash hamda ijtimoiy moslashuvini ta'minlashning muhim vositasi sifatida e'tirof etilgan.

Tahlil qilingan ilmiy adabiyotlar shuni ko'rsatadiki, rivojlanish markazlari bolaning ijtimoiy, intellektual, kommunikativ va ijodiy rivojlanishini ta'minlash orqali uning jamiyatga muvaffaqiyatli moslashuviga xizmat qiladi. Shu bilan birga, mazkur masalaning zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida yanada chuqurroq o'rganilishi dolzarb ilmiy muammo sifatida saqlanib qolmoqda.

### **METODLAR.**

Mazkur tadqiqot ishida bolaning jamiyatga erta moslashuvini ta'minlashda rivojlanish markazlarining o'rnini o'rganish hamda ularning pedagogik imkoniyatlarini tahlil qilish maqsadida bir qator ilmiy-tadqiqot metodlaridan foydalanildi. Avvalo, nazariy tahlil metodi yordamida mavzuga oid pedagogik, psixologik va metodik adabiyotlar, ilmiy maqolalar, dissertatsiyalar hamda me'yoriy-huquqiy hujjatlar o'rganildi. Ushbu metod orqali bolaning ijtimoiy moslashuvi, rivojlanish markazlari faoliyati va maktabgacha ta'lim jarayoniga oid ilmiy qarashlar tahlil qilindi. Kuzatish metodi tadqiqotning asosiy metodlaridan biri sifatida qo'llanildi. Ushbu metod yordamida maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi rivojlanish markazlarida bolalarning faoliyati, tengdoshlari bilan muloqoti, o'yin jarayonlari hamda ijtimoiy xulq-atvori kuzatildi va tahlil qilindi.

Suhbat metodi orqali tarbiyachilar, ota-onalar va bolalar bilan muloqot olib borilib, rivojlanish markazlarining bolalar rivojlanishiga ta'siri haqidagi fikr-mulohazalar o'rganildi. Suhbat natijalari mavzuning amaliy jihatlarini yoritishga xizmat qildi. So'rovnoma metodi yordamida maktabgacha ta'lim tashkilotlari pedagoglari va ota-onalar o'rtasida anketa so'rovlari o'tkazildi. Olingan ma'lumotlar rivojlanish markazlarining samaradorligini aniqlash hamda mavjud muammolarni belgilash imkonini berdi.

Pedagogik tajriba metodi asosida rivojlanish markazlarida tashkil etilgan turli faoliyatlarning bolalarning ijtimoiy moslashuviga ta'siri o'rganildi. Tajriba davomida

bolalarning kommunikativ ko'nikmalari, jamoada ishlash qobiliyati va mustaqillik darajasidagi o'zgarishlar tahlil qilindi. Taqqoslash metodi orqali rivojlanish markazlarida faol qatnashayotgan bolalar va bunday faoliyatga kam jalb qilingan bolalarning ijtimoiy moslashuv darajalari o'zaro solishtirildi.

Matematik-statistik tahlil metodi yordamida tadqiqot jarayonida to'plangan ma'lumotlar qayta ishlandi, umumlashtirildi va natijalarning ishonchliligi ta'minlandi. Shunday qilib, tadqiqotda qo'llanilgan nazariy va amaliy metodlar bolaning jamiyatga erta moslashuvini ta'minlashda rivojlanish markazlarining pedagogik ahamiyatini har tomonlama o'rganish hamda ilmiy asoslangan xulosalar chiqarishga imkon berdi.

### **NATIJARLAR.**

Tadqiqot jarayonida maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi rivojlanish markazlarining bolaning jamiyatga erta moslashuvidagi o'rni o'rganildi va tahlil qilindi. Olingan natijalar rivojlanish markazlari bolalarning ijtimoiy, kommunikativ, kognitiv hamda ijodiy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatishini tasdiqladi. Kuzatishlar natijasida rivojlanish markazlarida muntazam faoliyat olib borayotgan bolalarda tengdoshlari bilan muloqot qilish, o'z fikrini erkin ifodalash, jamoa bilan ishlash va hamkorlik qilish ko'nikmalari ancha rivojlanganligi aniqlandi. Ayniqsa, syujetli-rolli o'yinlar, qurish-yasash va ijodiy faoliyat markazlari bolalarning ijtimoiy faolligini oshirishda samarali vosita bo'lib xizmat qilishi kuzatildi. Suhbat va so'rovnoma natijalari tarbiyachilar hamda ota-onalarning aksariyati rivojlanish markazlari bolalarning mustaqilligi, tashabbuskorligi va mas'uliyat hissini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega ekanligini e'tirof etganligini ko'rsatdi. Ularning fikriga ko'ra, rivojlanish markazlarida yaratilgan erkin va qulay muhit bolalarning o'z qiziqishlari asosida faoliyat olib borishiga imkon yaratadi.

Tadqiqot davomida aniqlanishicha, rivojlanish markazlari faoliyatiga faol jalb etilgan bolalarda quyidagi ijobiy o'zgarishlar kuzatildi:

- muloqot madaniyati va nutq faolligi rivojlandi;
- tengdoshlari bilan hamkorlik qilish ko'nikmalari shakllandi;
- muammoli vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qilish qobiliyati ortdi;
- ijodiy fikrlash va tasavvur doirasi kengaydi;
- jamoaga moslashish va ijtimoiy me'yorlarga rioya qilish malakalari mustahkamlandi;
- o'quv faoliyatiga qiziqish va motivatsiya kuchaydi.

Shuningdek, tadqiqot natijalari rivojlanish markazlarida tashkil etilgan kitobxonlik, ilm-fan va tabiat, san'at hamda qurish-yasash faoliyatlari bolalarning har tomonlama rivojlanishiga xizmat qilishini ko'rsatdi. Bunday faoliyatlar orqali bolalar nafaqat yangi bilimlarni egallaydilar, balki jamiyatda yashash uchun zarur bo'lgan ijtimoiy kompetensiyalarni ham shakllantiradilar. Umuman olganda, tadqiqot natijalari rivojlanish markazlari maktabgacha yoshdagi bolalarning jamiyatga erta moslashuvini

ta'minlashda samarali pedagogik vosita ekanligini tasdiqladi. Ularning faoliyatini takomillashtirish va zamonaviy metodlar bilan boyitish bolalarning kelgusidagi ta'lim bosqichlariga muvaffaqiyatli tayyorlanishiga xizmat qiladi.

### XULOSA

Maktabgacha yosh davri bolaning shaxs sifatida shakllanishida, uning ijtimoiy munosabatlarni o'zlashtirishi va jamiyat hayotiga moslashuvida muhim bosqich hisoblanadi. Shu sababli bolalarning har tomonlama rivojlanishini ta'minlash hamda ularni jamiyatga muvaffaqiyatli tayyorlash maktabgacha ta'lim tizimining ustuvor vazifalaridan biri sanaladi. Mazkur tadqiqotda bolaning jamiyatga erta moslashuvini ta'minlashda rivojlanish markazlarining o'rni nazariy va amaliy jihatdan o'rganildi. Ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatdiki, rivojlantiruvchi ta'lim muhiti bolalarning ijtimoiy, kommunikativ, intellektual va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi. L.S. Vigotskiy, J. Piaje, M. Montessori, D.B. Elkonin kabi olimlarning ilmiy qarashlari ham bolaning faoliyat jarayonida rivojlanishi va ijtimoiylashuvida rivojlantiruvchi muhitning ahamiyatini tasdiqlaydi.

Tadqiqot natijalari rivojlanish markazlari bolalarning tengdoshlari bilan hamkorlik qilish, erkin muloqotga kirishish, mustaqil fikrlash va muammoli vaziyatlarda qaror qabul qilish ko'nikmalarini shakllantirishda samarali vosita ekanligini ko'rsatdi. Ayniqsa, syujetli-rolli o'yinlar, qurish-yasash, san'at, kitobxonlik va ilm-fan markazlari bolalarning ijtimoiy faolligi hamda jamiyatga moslashuv darajasini oshirishga xizmat qilishi aniqlandi. Shuningdek, rivojlanish markazlarida tashkil etilgan faoliyatlar bolalarda o'zaro hurmat, mas'uliyat, tashabbuskorlik, ijodkorlik va jamoada ishlash kabi muhim sifatlarni rivojlantirishi kuzatildi. Bu esa bolalarning keyingi ta'lim bosqichlariga tayyorligini oshirish bilan bir qatorda, ularning jamiyatda faol va barkamol shaxs sifatida shakllanishiga zamin yaratadi.

Tadqiqot asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

- rivojlanish markazlari bolaning jamiyatga erta moslashuvini ta'minlashning samarali pedagogik vositasi hisoblanadi;
- rivojlantiruvchi muhit bolalarning ijtimoiy va kommunikativ kompetensiyalarini shakllantirishga xizmat qiladi;
- markazlarda tashkil etilgan faoliyatlar bolalarning mustaqilligi, ijodkorligi va faolligini rivojlantiradi;
- rivojlanish markazlaridan samarali foydalanish maktabgacha ta'lim sifatini oshirishga yordam beradi;
- tarbiyachilarning rivojlanish markazlari faoliyatini to'g'ri tashkil etishi bolalarning har tomonlama kamol topishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa qilib aytganda, rivojlanish markazlari maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarning shaxsiy rivojlanishi va jamiyatga muvaffaqiyatli moslashuvini ta'minlaydigan muhim pedagogik mexanizm hisoblanadi. Ularning imkoniyatlaridan

samarali foydalanish orqali barkamol, ijtimoiy faol va mustaqil fikrlaydigan yosh avlodni tarbiyalash mumkin.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Qonuni. “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”. O‘RQ-595-son, 2019-yil 16-dekabr. — <https://lex.uz/docs/4646908>
2. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligi. “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi. – Toshkent: 2022
3. Qodirova F.R., Toshpo‘latova Sh.Q., Kayumova N.M., Azimova M.N. Maktabgacha pedagogika. — Toshkent: “Tafakkur” nashriyoti, 2019. — 688 b.
4. N.Sultonova, G.Nazirova. Maktabgacha ta’limda qiyosiy pedagogika. Toshkent: “ILM VA FAN”, 2023. 156 bet.
5. Nazirova G.M. Bolalarni maktabga tayyorlash metodikasi. — Toshkent: “Bookmany print”, 2024. — 386 b.
6. D.Weikard “Education young children : active learning practices for preschool and child care programmas
7. Maecia.L.Tate “Preparing children for success in school and life”
8. Sinan Koçyiğit “Farkli ülkelerde okul öncesi eğitim kurumlarının gelişimi